

# Methodological Approaches To The Development Of Students' Perceptual Abilities In Primary Education

Tursunboyeva Kamola Ilhomjon qizi

Andijan State Pedagogical Institute

2nd year basic doctoral student

Email: [kamola.tursunboyeva@mail.ru](mailto:kamola.tursunboyeva@mail.ru)

Tel:+998916717124

## Abstract

This article explores methodological approaches to developing perceptual abilities in primary school students. It analyzes effective strategies for enhancing skills related to sensory information processing, analysis, and integration with prior knowledge. The study emphasizes the use of interactive technologies, self-assessment practices, and collaborative activities to foster perceptual growth, which in turn improves students' creativity, engagement, and communication competencies.

**Keywords:** perceptual ability, primary education, methodological approach, interactive technologies, self-assessment, creative thinking.

## Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining perceptiv (idrok etish) qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondoshuvlar yoritilgan. Ta'lif jarayonida sezgi organlari orqali ma'lumotni qabul qilish, uni tahlil qilish va shaxsiy tajriba bilan bog'lay olish ko'nigmalarini shakllantirish uchun samarali usullar, interaktiv texnologiyalar va o'z-o'zini baholash mashqlari tahlil qilingan. Perseptiv qobiliyatni rivojlantirish o'quvchilarning faolligini, ijodkorligini va kommunikativ salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** perceptiv qobiliyat, boshlang'ich ta'lif, metodik yondoshuv, interaktiv texnologiyalar, o'z-o'zini baholash, ijodiy fikrlash.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lif jarayonida o'quvchining shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lif bosqichida shaxsnинг psixik funksiyalari, ijtimoiy va aqliy qobiliyatları shakllanishi muhim o'rinni egallaydi. Bu jarayonda perceptiv qobiliyatlar — ya'ni vizual, eshitish va boshqa sezgi organlari orqali kelayotgan ma'lumotlarni to'g'ri idrok etish va qayta ishlash qobiliyatları — asosiy ahamiyatga ega.

Perseptiv qibiliyatlar o'quvchining o'quv faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi, axborotni tez va aniq qabul qilish, uni tahlil qilish va anglash, shuningdek, uni real hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu qibiliyatlar muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, tafakkur, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarining shakllanishida hal qiluvchi o'ringa ega.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida perceptiv qibiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondoshuvlar, amaliy mashqlar, interaktiv vositalar, guruhiy ishlar va reflektiv faoliyatlar tahlil qilinadi. Bu yondashuvlarning didaktik asoslari va pedagogik samaradorligi amaliy jihatdan o'rganiladi.

**Asosiy qism.** Perseptiv qobiliyat – bu o'quvchining atrofdagi vizual, eshitish va boshqa sezgi organlari orqali kelayotgan ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilish, ulardan mazmunli xulosalar chiqarish, shuningdek, ularni tahlil qilib, o'z bilim va tajribasiga moslashtirish imkoniyatidir. Bu qobiliyat o'quvchining dars jarayonida faolligini, muloqot ko'nigmalarini, shaxsiy fazilatlarini shakllanishiga va ijodiy fikrlashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Idrok etish jarayoni insonning sezgi organlari orqali kelayotgan signallarni qabul qilish, ularni tizimlashtirish va ongda aks ettirishdan iborat. Bu jarayonda vizual, eshitish, tegish sezgi

tizimlari o'zaro bog'lanib, umumiy dunyoqarashni shakllantiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, idrok etish jarayoni miyaning faol ishlashi, neyron tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarga va shaxsiy tajriba darajasiga bog'liq.

O'quvchilarning perceptiv qobiliyatlarini o'Ichash, ularning psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun maxsus testlar va metodikalar mavjud. Shu orqali o'qituvchi har bir talabaning qabul etish jarayoni, diqqat darajasi, tahlil qilish qobiliyatini baholaydi. Bu nazariy asoslar pedagogik jarayonni individual yondoshuv asosida tashkil etish uchun poydevor bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lif bosqichida o'quvchilarning perceptiv qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida samarali metodik yondoshuvlar ishlab chiqish zarur. Ushbu maqolada ta'lif jarayonida idrok etuvchi qobiliyatlarni oshirishning asosiy metodlari, darslarni tashkil etish usullari va ta'lif texnologiyalarining roli tahlil qilinadi.

1. Amaliy mashqlar va interaktiv o'yinlar. Dars davomida o'quvchilarga maxsus idrok etuvchi mashqlar, diqqatni jamlash va vizual xotirani mustahkamlashga qaratilgan o'yinlar taklif etiladi. Rasm chizish, kontur aniqlash, shakllarni solishtirish kabi vazifalar orqali o'quvchilarning diqqatini va tahliliy qobiliyatini oshirish mumkin. Ushbu mashqlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi hamda ular orqali ma'lumotlarni qabul qilish jarayoni yanada samarali kechadi.

2. Multimediali va interaktiv ta'lif vositalari. Zamonaviy ta'lif texnologiyalari, video, animatsiya, interaktiv dasturlar yordamida darslarni tashkil etish idrok etish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Vizual materiallar va audio tasvirlar orqali o'quvchilar ma'lumotlarni ko'rish, eshitish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tarzda, dars davomida yaratilgan interaktiv muhit o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

3. Guruhli va jamoaviy faoliyat. O'quvchilar o'rtasida guruh bo'lib bajariladigan topshiriqlar, munozaralar va loyiha ishlarida, ularning o'zaro muloqoti, tajriba almashinuvi va birgalikda yechim topish qobiliyatları rivojlanadi. Guruh faoliyatı davomida o'qituvchi har bir o'quvchining idrok etish darajasini baholab, individual yondoshuvni qo'llashi mumkin. Bu usul o'quvchilarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va emotsional qirralarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. O'z-o'zini baholash va refleksiya. O'quvchilar o'z o'qish jarayonini tahlil qilib, qayerda xatolarga yo'l qo'yanliklarini aniqlashlari kerak. Refleksiya mashqlari orqali ular o'z qobiliyatlarini baholab, mustahkamlashga intilishadi. O'qituvchining qo'llab-quvvatlashi va konstruktiv fikr-mulohazalari asosida o'quvchilarning idrok etuvchi qobiliyatları yanada chuqurlashadi.

Metodik yondoshuvlar va usullar bo'yicha keltirilgan tavsiyalar orqali, boshlang'ich ta'lifda o'quvchilarning perceptiv qobiliyatlarini tizimli ravishda rivojlantirish, ularning darslarga bo'lgan qiziqishi va faol ishtirokini ta'minlash mumkin.

**Xulosा.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich ta'lifda o'quvchilarning perceptiv qibiliyatlarini rivojlantirish — ularning o'quv faoliyatidagi faolligini, mustaqil fikrlashini, bilimlarni ongli ravishda egallashini hamda ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlaydi. Interaktiv o'yinlar, multimedya vositalari, guruhli topshiriqlar va refleksiya usullari orqali o'quvchilarning sezgi, idrok, tahlil va baholash qobiliyatları shakllanadi.

Metodik yondashuvlarning izchil va tizimli qo'llanilishi orqali o'quvchilarda analitik fikrlash, axborotni tez anglash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondoshish kabi zarur kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin. Shu bois, boshlang'ich ta'lifda perceptiv qobiliyatlar bilan bog'liq mashg'ulotlar har bir fan doirasida didaktik jihatdan integratsiyalashgan tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Abdurahmonova D.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining idrok faoliyatini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

- Hasanboyeva N.X. Psixologiyada idrok va uning rivojlanishi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
- Xolmurodov O. Didaktika va metodika asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
- Юнусова Ф.М. Психология восприятия младших школьников // Психологические исследования. – 2021. – №3(47).
- Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
- Mayer, R.E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2009.
- Woolfolk, A. Educational Psychology. – Pearson, 2016.